

O'QUVCHILARGA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODIKASI

Qahramonov Aliboy Yolgoshovich

Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi

Jumaboyeva Yorqinoy Turg'unboy qizi

Abdullayeva Nigora Baxtiyorovna

Berdiyeva Gulzoda Dilmurod qizi

ISFT instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs talabalari

Annotatsiya: Bolalar olami ancha murakkab. Jamiyat, ijtimoiy muhit insonni o`zgartirib, tafakkurini yangilab boraversada, tabiat qonuniyatlar singari bolalik olamiga xos o`zgarishlar ham yangilanib boraveradi. Ammo har bir bolaning ong va tafakkuri nafaqat mакtabda olgan bilimi, balki badiiy kitobxonlik, estetik zavq, hayotga munosabati bilan to`lishib boradi. Bunda ayniqsa, fanlarning bir-biri bilan uzviylik va uzlusizlik asosida integratsiyalashuvi muhim omil sanaladi. Ya'niki, fanlar va bilimlar yo`nalishi, badiiy ijod namunalari mantiqan bir-birini taqozo etsa, o'quvchilarda to`laqonli tafakkur shakllana borishiga poydevor yaratiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish metodikasi va usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fe'l, so'z turkumi, o'quvchi, dastur, ma'no, savod, qo'shimcha, leksik, nutq, xususiyat.

So'z turkumlari boshlang'ich sinflarda ancha osonlashtirilgan tarzda, ularning yoshi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'rgatiladi. Ayniqsa, fe'l so'z turkumi ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, uni har sinda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdag'i o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdag'i o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

“Fe'l” mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan

boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'lidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bo'gliq holda ayrim orfografik qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir – biri bilan bo'gliq holda hal etiladi.

Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

Fe'l ustida ishslashga tayyorgarlik savod o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarning diqqati fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi. Fe'l uchun tipik hisoblangan leksik grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishini umumlashtirish imkonini beradigan aniq manba yig'iladi.

Fe'l ustida ishslash mashqlarini “Alifbe” dagi so'z va matnlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishiga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmuniga mos so'zlar bilan to'ldiradilar:

Bahorda daraxtlar nima qiladi? ... (gullaydi).

Kuzda mevalar nima qiladi? ... (pishadi).

Bolalar nima qilayaptilar? (dam olayaptilar). (ishlayaptilar).

Harakatni ifodalovchi so'zlarga nima qildi? Nima qilyapti? nima qilmoqchi? Kabi so'roqlarni beramiz. Masalan: nima qildi? – uchib keldi.

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish og'zaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildilar? Nima qilyaptilar? Nima qilmoqchilar? Kabi so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida fe'l zamonlarini o'rganishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda fe'l ustida ishslash. Fe'l ustida ishslashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarning diqqati:

- fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi;

- fe'l uchun tipik hisoblangan leksik ma'nosiga qaratiladi;

- fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi.

I sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini (o'rganishga tayyorlash demakdir) aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga so'zlarni tanishga, so'zni so'roqqa mos ravishda o'zgartirishga (nima qildi?) (o'qidi). Nima qilamiz? O'qiymiz, nima qilmoqchi? O'qimoqchi kabi o'rgatiladi.

II sinfda fe'I ni o'rgatish. Bu bosqichning asosiy vazifasi “Fe'I – so'z turkumi” degan tushunchalarni shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasining talaffuzini va imlosini o'rgatish hisoblanadi.

Dasturga ko'ra, bu sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'lllar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun o'qish darsida kimlar o'qidi. Rahim ham o'qidimi? Kim so'zladi? Ravshan so'zladimi? Ra'no kutubxonaga bordimi? Halima gapiryaptimi savollaridan ham foydalanadilar. Bunda o'quvchilarga bo'lishsizlik shakli -ma, emas, -gani yo'q kabi vositalar yordamida ifodalanishi tushuntirib o'tiladi hamda buni bevosita o'z nutqlarida qo'llab ko'radilar.

III sinfda fe'I ni o'rganish. Bu sinfda fe'I ni o'rganishning vazifasi:

1) fe'Ining shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqida tushuncha berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish, fe'Ining leksik ma'nolari, bo'lishli yoki bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2) nutqda fe'I dan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda sinonim va antonim fe'llardan, matn bilan bog'liq holda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3) O'tgan zamon qo'shimchasining talaffuzi va yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish.

4) Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqida tushuncha berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish hisoblanadi.

Bu mavzular o'quvchilarning savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Imloviy va nutqiy savodxon o'quvchilarning jamiyatda o'rin egallashi oson kechadi. Shuningdek, sifat, ot va son so'z turkumlarining o'tilishi ham bu samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, 4-sinf Ona tili darsligida berilgan ot so'z turkumiga oid egalik, kelishik qo'shimchalari haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarning orfografik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Nutq jarayonida tovush tushish, tovush orttirilish hamda tovush almashinish

hodisalari yuzasidan berilgan mashqlar, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnila qo'llashga oid mashqlar bunga misol bo'la oladi:

Nuqtalar o'rniiga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib ko'chiring. Anvar bola chog'idan gulzor.. (-ning, -ni) yaxshi ko'rardi. Maxdum.. (-ni, -ning) oilasiga kelgach, bog'cha... (-ni, -ning) gulzor qismiga o'zi qaray boshladi. Gulzor.. (-ning, -ni) sug'orish, o'tlar...(-ning, -ni) yulish vazifalari.. (-ning, -ni) o'zi bajardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. –T.: O'qituvchi, 1995.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022
3. Sayfullaeva R. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. –T.: Fan 1994.
4. Qurbonova M. Hozirgi o'zbek tili (sodda gap sintaksi uchun materiallar). –T.: O'zMU bosmaxonasi, 2002
5. Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: "Fan va texnologiya", 2009.
6. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –T.: O'qituvchi, 1987
7. Mehridinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'limg saboqlari" Toshkent 2014.
8. Dehqanova M.U., Djanaliyeva G.A. Ta'limg metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'limg texnologiyalari. T., 2006-yil
9. M.Yo'ldoshev. O'zbek tili praktikumi (1-qism). Toshkent: TDPU. 2005
10. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'limg texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2002.
11. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983- yil.
12. Shahobiddinova Sh. O'zbek tili morfologiysi umumiylig-xususiylik dialektikasi talqinida. I juz. – Andijon, 1994
13. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. –T.: Universitet, 1995.
14. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – T.: Fan, 1982.